Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

O‘LKASHUNOSLIK MUZEYLARINING BUGUNGI AHVOLI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Sultanova Jasmina Gafur qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23437978

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi o‘lkashunoslik muzeylarining bugungi holati, ularning jamiyat ma’naviy poydevorini mustahkamlash hamda milliy va mahalliy tarixni, boy etnografiyamizni o‘rganishdagi o‘rni keng tahlil etilgan. Viloyat va tuman muzeylarida mavjud bo‘lgan bino saqlash sharoitlari, eksponatlarni muhofaza qilish, ekspozitsiyalarning ma’nan eskirganligi, malakali kadrlar yetishmovchiligi hamda raqamlashtirish va marketing sohasidagi dolzarb muammolar atroflicha ko‘rib chiqilgan. Ushbu maqolada o‘lkashunoslik muzeylarini zamonaviy, ma’rifiy-madaniy va daromad keltiruvchi maskanlarga aylantirish boyicha strategik jihatdan taklif hamda tavsiyalar ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: o‘lkashunoslik muzeylari, madaniy meros, viloyat va tuman muzeylari, raqamlashtirish, ekspozitsiya, turizm integratsiyasi, etnografiya, muzey marketing.

Milliy ildizlarni va o‘zlikni anglash, avvalo, boy tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash hamda ularni kelajak avlodga bezavol yetkazish uchun har qanday rivojlanayotgan yurtning ma’naviy-ma’rifiy yuksalishini tashkil etadi. Qadimdan insoniyatning bosib o‘tgan murakkab va sharafli yo‘li, uning turmush tarzi, madaniyati, san’ati hamda milliy qadriyatlari albatta, muzeylar vositasida moddiylashadi va saqlanadi. Poytaxtdagi yirik, muhtasham va xalqaro maqomga ega bo‘lgan davlat muzeylaridan farqli o‘laroq, chekka viloyat, shahar va tumanlarda joylashgan hududiy o‘lkashunoslik muzeylari muayyan bir kichik hududning, qishloq yoki tumanning o‘ziga xos tarixi, etnografiyasi, tabiati va qadimiy turmush tarzini o‘zida mujassam etgan haqiqiy ma’naviy xazina hisoblanadi. O‘lkashunoslik muzeylari nafaqat eksponatlar jamlangan joy, balki mahalliy aholining o‘z ildizlarini anglashida va yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim poydevor vazifasini o‘taydi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish, muzeylar faoliyatini takomillashtirish hamda ularning infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha qator davlat dasturlari va me’yoriy-huquqiy hujjatlar, Prezident va Hukumat qarorlari qabul qilindi[1]. Ushbu islohotlar doirasida hududiy muzeylardagi nodir manbalar, arxeologik topilmalar hamda etnografik eksponatlar xatlovdan o‘tkazilib, ularni saqlash va muhofaza qilish choralariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Biroq bugungi tezkor raqamlashtirish va jahon turizmi jadal rivojlanayotgan davrda viloyat hamda tuman o‘lkashunoslik muzeylari faoliyatida chuqur va har taraflama tahlilni hamda tezkor yechimlarni talab etadigan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-261-sonli Qarori. 2022-yil 27-may.

Muzeylarning keng tarqalgan turi hisoblangan O‘lkashunoslik muzeylari kompleks yo‘nalishga ega bo‘lib: unda, asosan, tabiat, tarix, ba’zilarida san’at, adabiyot va etnografiya, ayrimlarida qishloq xo‘jaligi, iqtisod, sport kabi bo‘limlar ham bo‘ladi. O‘lkashunoslik muzeylari katalog, yo‘l ko‘rsatkichlar va boshqalarni nashr qiladi. 20-asr boshida O‘rta Osiyoda 4 ta O‘lkashunoslik muzeylari bo‘lgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston hududida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlarida O‘lkashunoslik muzeylari jumladan, “Andijon viloyat o‘lkashunoslik muzeyi”, “Farg‘ona viloyat o‘lkashunoslik muzeyi” va boshqalar bor bo‘lib, ular o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadi. Bugungi kunda tuman va viloyat muzeylarining faoliyati atroflicha o‘rganilganda, ularning to‘liq quvvat bilan ishlashiga va zamonaviy talablarga javob berishiga to‘sqinlik qilayotgan bir necha asosiy omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Moddiy-texnik bino va saqlash sharoitlarining yetarsizligi, ya’ni bunda ayrim tuman va shahar muzeylari maxsus muzey talablariga moslashtirilmagan bo‘lib, o‘tgan asrda qurilgan eskirgan va ta’mirtalab binolarda joylashgan. Qadimiy qo‘lyozmalar, matolar, yog‘och va kulolchilik buyumlari kabi nodir eksponatlarni yillar davomida shikastlanmasdan saqlash uchun o‘ta muhim bo‘lgan doimiy harorat va namlik rejimini bir maromda ushlab turish tizimlari yetishmaydi. Shuningdek, aksariyat muzeylarda zamonaviy xavfsizlik, videokuzatuv va yong‘inga qarshi avtomatlashtirilgan xavfsizlik tizimlari bilan ta’minlanish darajasi hamon qoniqarsizligicha qolmoqda, bu esa noyob eksponatlarning saqlanishiga xavf tug‘diradi.

Ko‘plab viloyat va tuman muzeylarida eksponatlar hamon o‘tgan asrning 80–90-yillarida qanday tartibda joylashtirilgan va bezatilgan bo‘lsa, deyarli shundayligicha turibdi. Interaktiv texnologiyalar, multimediali taqdimotlar, yoritish tizimlarining zamonaviy yechimlari va dizaynerlik yondashuvining yo‘qligi sababli, bu maskanlar raqamli texnologiyalar va axborot oqimi asrida o‘sayotgan yosh avlodni hamda xorijiy sayyohlarni yetarlicha jalb eta olmayapti. Muzey vitrinasi ortida shunchaki harakatsiz turgan buyum bugungi tomoshabin uchun yetarli darajada qiziqarli va taassurotli bo‘lmay qolmoqda.

Hozirgi kunda hududiy muzeylarning eng og‘riqli nuqtalaridan biri — bu malakali muassasa xodimlarining yetishmasligidir. Hududlarda tajribali restavratorlar, muzeyshunoslar, zamonaviy ekskursavod hamda chet dillarini mukammal biladigan gidlar o‘tkir defitsit hisoblanadi. Bu holat mavjud arxeologik va etnografik eksponatlarni chuqur ilmiy tadqiq etish, ularning kataloglarini yaratish va eng muhimi, to‘plangan ma’lumotlarni tomoshabinga va tashrif buyuruvchilarga jonli, qiziqarli shaklda yetkazib berish jarayonini sekinlashtirmoqda. Aksariyat hududiy muzeylarning rasmiy veb-sayti, elektron bazasi yoki ijtimoiy tarmoqlarda (Instagram, Telegram, Facebook, YouTube) faol sahifalari va zamonaviy reklamasi mavjud emas. Muzeylar o‘z faoliyatini va fondidagi noyob boyliklarini targ‘ib qilishda an’anaviy va eskirgan usullardan foydalanmoqda. Oqibatda, hatto mahalliy aholining va yaqin atrofdagi maktab o‘quvchilarining o‘zi ham o‘z tumanidagi muzeyda qanday nodir va bebaho tarixiy boyliklar borligidan bexabar qolmoqda.

O‘lkashunoslik muzeylarini shunchaki eksponatlar saqlanadigan, o‘tmishdan qolgan “Omborxona” va sokin muassasalardan zamonaviy, jozibador, daromad keltiruvchi hamda faol ma’rifiy markazlarga aylantirish uchun bir qator kompleks strategik qadamlarni amaliyotga joriy etish lozim. Tashrif buyuruvchilar va sayyohlarga faqat shisha ortida turgan eksponatni va uning ostidagi qisqa matnni ko‘rsatish amaliyotidan voz kechish kerak. Virtual reallik VR - ko‘zoynaklari hamda 3D proyeksiyalar orqali hududning qadimiy qal’alari, tarixiy janglari, me’moriy obidalari va milliy urf-odatlarini vizual jonlantirish zarur. Masalan, tashrif buyuruvchi VR-ko‘zoynak orqali o‘sha hududda III–IV asrlarda mavjud bo‘lgan qal’a ichida virtual sayr qila olishi yoki qadimiy bozordagi muhitni his eta olishi lozim.

Bu usul, ayniqsa, raqamli texnologiyalarga qiziquvchi yosh avlod uchun muzey jozibadorligini keskin oshiradi. Har bir eksponat yoniga maxsus QR-kodlar va NFC-teglar joylashtirilib, tashrif buyuruvchi o‘z smartfoni orqali bir necha tilda (o‘zbek, ingliz, rus va boshqa tillarda) batafsil matnli ma’lumot, interaktiv fotosuratlar hamda avtomatlashtirilgan audio-yo‘lboshchi ya’ni audio-gid xizmatidan foydalana oladigan “Smart-muzey” tizimini yaratish lozim[2]. Bu nafaqat gidlar yetishmovchiligi muammosini hal etadi, balki tashrif buyuruvchilarga muzey bo‘ylab erkin va mustaqil ravishda axborot olish imkoniyatini beradi.

Hududiy muzeylarni mahalliy va xalqaro turizm marshrutlarining majburiy, ajralmas nuqtasiga aylantirish zarur. Buning uchun tuman hokimliklari hamda Turizm qo‘mitasi bilan hamkorlikda turistik paketlarga hududiy muzeylarni kiritish lozim. Muzey hududida yoki unga tutash ochiq maydonlarda kulolchilik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi va doppichilik kabi milliy hunarmandchilik bo‘yicha jonli mahorat darslari hamda esdalik sovg‘alari do‘konlarini yanada tizimlashtirib rivojlantirish va tashkil etish zarur. Bu tashrif buyuruvchilar oqimini oshirish bilan birga, bizning boy an’ana-qadriyatlarimizni turistlarda singdirish hamda muzeyga qo‘shimcha moliyaviy daromad keltirish va mahalliy hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash imkonini ham yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, hududiy o‘lkashunoslik muzeylari shunchaki o‘tmish aks ettirilgan disk yoki eksponatlar saqlanadigan bino emas, balki xalqimizning tarixiy xotirasini va milliy o‘zligini namoyon ettiruvchi muhim ma’naviy markazlardan hisoblanadi. Ularni davr talabiga mos ravishda rivojlantirish va zamonaviylashtirish mamlakatimizning madaniy va turistik salohiyatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib keng miqyosda rivojlanishimiz uchun ham kelajak kalitidir. Hududiy muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va ularni zamonaviy ma’rifiy-madaniy maskanlarga aylantirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: Hududiy muzeylar binolarini ta’mirlash hamda ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlashga xususiy sektor va xalqaro madaniy grantlarni keng jalb etish. Viloyat va tuman muzeylari xodimlari uchun poytaxtdagi yetakchi muzeylar hamda xalqaro muzeyshunoslik markazlarida muntazam ravishda malaka oshirish va tajriba almashish kurslarini tashkil qilish. Respublika bo‘yicha barcha hududiy o‘lkashunoslik muzeylarining yagona raqamli katalogini shakllantirish hamda ularning virtual 3D turlarini yagona portalga joylashtirish. Tuman va shahar maktablarining nafaqat tarix fanlari dasturiga balki geografiya, tarbiya fanlari rejasiga ham muntazam muzeylarga doimiy tashriflarni kiritish, shuningdek, muzey eksponatlari asosida interfaol ochiq darslarni doimiy ravishda o‘tkazib borish shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilov X. O‘zbekiston etnografiyasi va o‘lkashunoslik masalalari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – 240 b.
2. Qosimov A., Sodiqov M. Muzeyshunoslik va eksponatlarni muhofaza qilish nazariyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – 312 b.
3. Mirzayev T., Rashidova D. Muzey ekspozitsiyalarini loyihalash hamda zamonaviy dizayn yechimlari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021. – 188 b.

Internet manbaalar:

1 O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi rasmiy veb-portali – https://madaniymeros.uz

2 uz.wikipedia.org

[2] Abdullayev B. S. O‘lkashunoslik muzeylarida raqamli texnologiyalar va Smart-konsepsiyani joriy etish masalalari // *Madaniyat va san’at muammolari*, 2023. №2. – B. 48.